

## BADIIY ASARLARDA SHAXS MA'NAVIY SIFATLARINI IFODA ETUVCHI KONSEPTLARNING BERILISHI

**Pardayeva Adiba Abduraxmonovna**

QarshiDU Filologiya fakulteti

lingvistika: o'zbek tili 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Zamonaviy tilshunoslikda bugungi kunda keng o'rganilayotgan mavzularidan biri-konseptdir. Bu termin o'zbek tilshunosligiga kirib kelgan yangi yo'nalish: lingvoma'naviyatshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada konseptning badiiy asarlarda, ya'ni badiiy matnda ifodalanishi tadqiqqa tortildi.

**Kalit so'zlar:** konsept, lingvoma'naviyatshunoslik, badiiy matn, ma'naviy fazilatlar, leksik konsept, frazeologik konsept, sintaktik konsept, badiiy konsept, ma'naviyat ifodalovchi konseptlar, mardlik konsepti.

### ABSTRACT

This article is devoted to research theme of concept. This term is new direction in uzbek linguistic. It analyzes embellishment of literary texts and fiction books concepts.

**Key words:** concept, linguistic morality, lexical concept, phraseology concept, syntactic concept, literary concept, morality concept, bravery concept.

Konsept lotin tilidagi "conseptus" - tushuncha so'zining kalkasidir. Konsept rus tilshunosligida XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askaldov tomonidan ilmiy termin sifatida muomalaga kiritilgan. Konsept til egalarining madaniyati, ma'naviyati va urf-odatlarini, ananalari bilan birga tasvirlovchi tushunchadan yuqoriroq turuvchi hodisadir. Konseptning tuzilishi murakkab. Bir tomondan, unga tushuncha qurilishiga aloqador hamma narsa daxldor, boshqa tomondan esa, konsept tuzilishiga hamma narsa kiradiki, bular uni madaniyat faktiga aylantiradi. Konsept inson ongidagi madaniyat qaymog'i, madaniyatning inson olamiga kirishning ko'rinishidir.

Tilshunoslikda konseptlar faqat lesik va leksik frazeologik birliklar orqali ifodalanib qolmay, fanda sintaktik konseptlar haqidagi qarashlar ham mavjud. Bu qarashlar tilshunos olimlar S.Y.Kuzmina va L.A.Fursning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tilshunos D. Xudoyberganovning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli kitobida badiiy matn ham konsept ifodachisi bo'la olishi mumkinligini bir qancha

misollar bilan asoslab beradi. Rus tilshunosi I.G.Tgachenko tadqiqotchilar tomonidan badiiy konseptga xos quyidagi belgilar qayd etilganini ta'kidlaydi:

- 1) mantiq qoidalariga bo'ysunmaslik;
- 2) real voqelikka har doim ham mos kelmaslik;
- 3) potensial obrazga dinamik tarzda yo'nalganlik;
- 4) obrazlilik;
- 5) estetiklik;
- 6) individuallik

Badiiy konseptga individual, psixik, muallifiy hosila hamda milliy va adabiy an'analar hosilasi sifatida qarash to'g'riroqdir.

Xususan, badiiy asarlarda, lingvoma'naviy tushunchalar, shaxsning ma'naviy fazilatlarini ifodalovchi konseptlar: yaxshilik, vafodorlik, adolat, vijdonlilik, iymon, vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat, e'tiqod va hokozolar o'z aksini topadi.

Konsept atamasi insonning lisoniy manzarasidagi milliy qarashlar bo'lib, u matnning umumiy mazmunida o'z aksini topadi. Masalan, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asaridan keltirilgan mikromatnlarda shaxsga xos ma'naviy fazilatlar badiiy konseptlarda ifoda etilgan.

Do'stga sadoqat konsepti.

Shiblining boshiga devonalik tushdi, uni jinnixonaga eltib |qo'yishdi. So'ng bir necha kishi ko'rgani borishdi.

— Kimsizlar? — deb so'radi jinni ulardan.

— Biz sening do'stlaringmiz, — deyishdi.

U qo'lga tosh olib, hamla qildi. Hammalari qochib ketishdi.

— Qayting, ey da'vogarlar, — dedi u, — do'st do'stdan qochmaydi va uning jafu toshidan saqlanishga shoshmaydi.

*Chin do'st ul — do'stligi oshaversa gar,*

*Do'stidan yomonlik ko'rganida ham.*

*Boshiga ming jafu toshi yog'lsa,*

*Mehr uyi u toshdan bo'lur mustahkam.*

Sadoqat konsepti keng qamrovli konseptlardan biri bo'lib ushbu mikromatnda do'stlik kognitiv maydoni tarkibiga kiruvchi ishonch, e'tiqod, hamfikirlik, hamdillik mikrokonseptlari qatoriga mansubdir. Sadoqat konsepti sotqinlik konseptining ziddi sifatida nutqda ishlatiladi.

Mardlik konsepti. Ro'yam: «Mardonalik o'z birodarlari kamchiligini kechirishda va ketidan kechirim so'rash lozim bo'lmaydigan ish qilishda!» — der edi.

*Ikki narsa mardonalik bo'lar bil,  
Senga aytib beray bir-bir quloq sol.  
Biri bulkim, kechira bil do'stlaring.  
Xatolari bo'lsa hamki, ko'p qo'pol.  
Ikkinchisi uzrli ish qilma hech,  
Mard kishiga uzr so'rash ko'p mahol.*

Mardlik konsepti kognitiv maydoni kechirimlilik va kamuzrlilik mikrokonseptlaridan tashkil topgan. Mardlik konseptiga zid tushuncha esa nomardlikdir.

Kamtarlik konsepti.

Yusuf ibn Husayn Roziy: — Hamma yaxshiliklar bir uyda, uning kaliti tavozu va kamtarinlikdir, hamma yomonliklar boshqa bir uyda, uning kaliti manmanlikdir, — der edi.

*Yaxshiliklar bir xonaga jam,  
Kamtarlikdir uning kaliti.  
Yomonliklar boshqa xonada  
Uni ochar manmanlik iti.  
Ehtiyot bo'l, toyib ketmagil,  
Shundan kelar yuzing shuviti.*

Kamtarlik konsepti yaxshilik kognitiv konseptini tashkil qiluvchi konsept bo'lib matnda manmanlik konseptiga zid qo'yilgan.

Kognitiv (konseptual) metaforalarning qo'llanilishi

Konseptual metaforalar nazariyasiga XX asrning so'nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakillari L. Jakov hamda M. Jonsonlar o'z tadqiqotlarida asos solishgan. Kognitiv metaforalar olamni tushuntirishning eng qulay usullaridir. Kognitiv metaforalar universal yoki individual bo'lishi (butun dunyo odamlariga tushunarli, yakka millat vakillariga tushunarli) mumkin. Donishmandlarning asarlaridan olingan hikmatli so'zlar misolida konseptual metaforalarni tahlil qilamiz. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. (Sh. M. Mirziyoyev)

Mikromatndagi konsept - bu o'zlikni anglash. Konseptual metaforalar: davr talablari bilan uyg'un bo'lmoq, o'zlikni unutmoq, o'zligiga sodiq qolmoq, qalbdagi aks-sado bermoq.

Muhabbat. Umrda bir marta keladi. Yoqtirish esa bir necha marta. Sen bularning orasini aralashtirma, tag'in nadomat qilib yurmagin. Mark Tven

Mikromatndagi konsept-muhabbat atov birligi hisoblanadi. Muhabbat kognitiv maydoniga xos mikrokonsept yoqtirish konseptidir.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida konseptning berilishi.

Chin shahrining sifati va Simurg'parining u yerga tushgani voqeasi  
Hudhud qushlarga shunday dedi:

— Bu voqea Sharqdagi Chin degan bir shaharda bo'lib o'tgan. U shahar emas, kenglikda butun bir jahonga teng kelar, uning ichida o'n jahon aholisi joylashgan edi. Bu shaharning ko'rinishi Eram gulzoridan yaxshiroq, suvi esa jannat anhoridan dilkashroq edi.

Bir tun u davlatmakon shoh olam bo'ylab parvoz etishga kirishdi. Ittifoqo, o'sha jannatsifat Chin shahriga yo'li tushdi. O'sha kecha u shahar ustidan uchib o'tayotganida, bu shahar boshdan-oyoq yorishib ketdi. Bu ishdan xabar topgan xalq beshuur bo'lib qoldi. Simurg' silkinib uchib borayotganida, undan bir par tushib qoldi va bu par butun Chin mamlakatini bezak hashamga o'rab yubordi. Bu parda turli rangli naqshlar haddan tashqari ko'p ediki, ularni so'z bilan sharh etish qiyin.

Ertasi kuni el yana o'zining avvalgi holiga qaytdi va parning shakli va rangiga boqqa boshladi. Har bir kishi g'ayrat ostida qo'lga qalam ushlab, bu pardagi naqshlarni o'z xayolida jonlantirar va qog'ozga tushirardi. Hamma undagi suratlarni chizishga kirishdi va bu elning barchasi shu ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Bu kishilar orasida o'z suratlari bilan bir kishi yuqori kamolot darajasiga erishdi. Uning oti Moniy bo'lib, qalami mo'jizakor, san'ati ko'rgan kishilarni hayratga solardi. Shuning uchun ham ma'no ahli Moniyning suratxonasi Chinda deb aytadilar. O'sha par hali ham mazkur jannatsifatli Chinda emish va u yerdagi aql bovar qila olmas darajadagi barcha go'zallik o'sha parning paydo bo'lishi tufayli emish.

Hech kim uni — Simurg'ni ko'rgani haqida og'iz ochmagan. U haqda bu qadar so'z aytilmagan. Uning asl zotidan hech kim, bir kishi biron so'z deya olmagan, chunki uning zotini har qanday o'tkir ko'z ham ko'ra olmaydi. O'sha par ustida har tarafga patchalar o'sgan, bu uning sifatini ko'rsatadi. Bu par holatidan cheksiz naqshlar paydo bo'ldi. Bu pardagi ranglar beqiyos darajada bo'lib, ismlarini uning yo'llarini biluvchilar aytib o'tdilar. Garchi biron kishi bu qushning sayru holati haqida gapirmasada, lekin, aslida, hech yerundan holi emasdir. Uning amriga itoat qilish — hammamizga ham farz, ham qarz. Bu ishni bajarmasak, yuz xil balolarga giriftor

bo'lamiz. Agar uning aytganlarini ko'ngildagidek bajarsak, u o'z visolidan bizni umidvor etadi. Bordi-yu, osiylik qilib, bo'yin tovtasak, xavf-xatar yuzlanadi. Bunday shoh hech bir qavmda yo'q. Usiz yashash yuz ming ohu dard chekmak bilan tengdir.

Bu hikoyadagi asosiy konsept - Alloh Taoloning jamoli. Ya'ni Simurg' qushi timsolida Alloh Taolloning sifatlari yer yuzining har bir joyida, har bir narsada aks etib turishi tasvirlangan.

### Sinov konsepti

Qushlarning yo'lga chiqqanlari va mashaqqat shiddatidan ba'zilarining safariga putur yetgani. Hudhud qushlarga shu tarzda ishq sirlaridan gap ochdi, qush tili bilan tarannum qilib, vasl va hijron haqida so'z yuritdi. Qushlarga o'zlarining hijronda ekanliklari malol kelib, vasl haqida yuz turli shirin xayollarga borishdi. Ularning har birining yodiga hajr paytidagi qattiq ahvol tushdi, vasl davronini unutganliklari, hajr qiynog'ida qolganliklari ta'sir qildi.

Hudhud so'zlari esa ulami ajoyib sirlardan, ishq aro bu xil yashirin ramz-ishoralardan voqif etdi. Ular o'zlarining qanday saodatdan yiroq tushganliklari va qandayin to'g'ri yo'ldan chetga chiqib ketganliklarini his qildilar. Hudhud so'zlari ularni ogohlik sari boshlab, ularning nechog'lik jaholat va gumrohlikda qolganini anglatdi. Ular o'zlarining ishq yo'lidan yiroq ekanliklari va firoq girdobida qolganliklarini chuqur his etishdi. Bundan ularning vujudi kuyib-o'rtandi, har bining jonidan alamli dud chiqib ketdi. Har biri cheksiz uyatga qolib, o'z hayot shamlarini o'chirish darajasiga yetdilar. O'z qilmishlaridan sharmanda bo'lishib, o'z guruhlari fe'lidan tushkunlikka yuz tutdilar. Ular garchi ko'p hayrat xunobi yutgan bo'lsalar-da, o'tgan ishga salavot aytib, endi o'zlarining toki hayotiari bor ekan, tunu kun o'sha shoh yo'lida qanot urishga ahd etdilar.

Ular bu yo'lda boshlariga ming turli balo kelsa ham, garchi bu balolaming har birida yuz ming azob-uqubatlar bor bo'lsa-da, o'zlari ixtiyor etgan bu talab vodiysidan voz kechmaslikka va u tarafga borishdan aslo qaytmaslikka qaror qilishdi. Barcha qushlar shu tarzda ittifoq tuzib, gapni bir joyga qo'yishdi, davronga firoq ohangi chekdilar. Ular bu sohada Hudhudga boshdan-oyoq izdoshlik qildilar. Qushlar to'dasi yo'lga chiquvchiyu Hudhud ularga yo'l boshlovchi bo'ldi. Vasl umidida ko'p xursandchilik bilan yo'lga tushib, ko'kka parvoz qildilar. Shu tarzda bir necha kun yo'l yurib, bir biyobondan uchib o'tishdi. Ammo yo'l davomida ularga juda ko'p qiyinchiliklar, ranju alamlar, shiddatu g'amu sitamlar yuzlandi. Bu masofani bosib o'tguncha ushbu notavonlarga har xil ofatlar duchor bo'ldi. Chunki ular avvallari bo'stonlarda noz ila kun kechirar, issiq yoz mahali soya-salqin daraxtlar orasida mazza qilishardi. Yo'l mashaqqati ularni qiyin bir ahvolga solib qo'ydi, har birida yuz xil malolliklarni keltirib chiqardi. Ular o'zlarining avvalgi tinch, osuda hayotlarini sog'inib, bog'u

bo'stonlar va gulzorlar qo'ynidagi sokin uyalarini qo'msadilar. U yerlardagi dilxushlik, baxtiyor damlar, farog'atli go'shalar va ayshu ishrat gulshanlari ularning yodiga tushdi. Bu yo'lda qushlardan ayrimlarining safariga putur yetib, ular safardan bo'yin tovlay boshladilar. Notavonlik bilan Hudhuddan kechirim so'rab, ulardan har biri bir uzrni izhor qila ketdi. Bu uzrlar ularga ma'qul ko'rindi va ular safardan chetga yuz burdilar. Ularning hammasi Hudhudga shunday iltimos qilishdi: - Ey yo'l boshlovchi, birpas to'xtagil! Bizdan ba'zilar juda nochor ahvolga tushdi; bu yo'lni kezishdan ba'zilarining joni xasta bo'lib qoldi. Ba'zilar oldida har xil mushkulot paydo bo'ldi, buning uchun ular sendan najot istaydilar. Ba'zilarining senga aytmoqchi bo'lgan gaplari bor, bu gaplar azob-uqubat ohanglari bilan to'la. Ularni senga bayon qilmoq zarur, aks holda safarni davom ettirishga putur yetadi.

Hudhud ulardagi bu ojizliklarni ko'rgach, barchasini bir yerga to'plab, bir vodiy ustiga qo'ndi va ularning dardi holini eshitmoq maqsadida: "Qani, kimning qanday gapi bor, aytinglar", dedi. Shunday qilib, Hudhud qushlar arzini tinglamoq uchun yerga qo'ndi.

#### Ojizlik va nafs konsepti.

Hammadan avval To'ti uzr aytishni boshlab, o'z ojizligi haqida shunday dedi: — Men issiq o'lkalarda, chunonchi, Hindistonda sayr qilib yurgan qushman. Fasohatli, chiroyli so'z aytish bilan shuhratim el orasida yoyilgan. O'z so'zlarim bilan g'amgin elni ovutaman. Baxtiyor, davlatmand kishilar qafasni menga manzilgoh qilib, har qanday qiyinchiliklardan avaylab-asraydilar. Nozaninlar qo'lidan yemish yeyman, ular meni qand va shakarlar bilan parvarish qiladilar. Ro'paramda goh bir ko'zgu, goh bir ko'zgu chehrali oyjamol turadi. Umrimda shodu xurramlikdan o'zga hech narsa ko'rmaganman; nutqim elga yuz turli shodlik baxsh etadi. To o'zimni bilgandan buyon qattqlik nimayu ranj zahridan achchqlik nima ekanini tatib ko'rmaganman. Sen aytgan joy shunday bir dargohdirki, u dargohda burgut pashshaga tengdir. U yerga bizdek pashshadan ham ojizroq el qanday bora olardi? U tomon qanday borishni sira bila olmayman! O'zga qushlardek bu yo'lni bosib o'tishga hech bir aqlim yetmaydi! Shunday bir ahvolda senga hamrohlik qila olishim mumkinmi?! Mening bu holatimni o'zing bir o'ylab ko'r!

#### Maqsadda sobitlik konsepti

Bir tolib kishi ko'ngliga ishtiyoq tushgan holda qiynalib, shahar oralab ketib bormoqda edi. Ko'chada yiqilib yotgan devorni ko'rdi. Uning atrofida kishilar to'planib, mojaro qilmoqda edilar. Chunki odamlar bu katta ko'chadan o'tib qaytishar, bugun esa devor yiqilib, ular o'tadigan yo'lni berkitib qo'ygan edi. Odamlar: - Yo Rab! Endi qaysi tomondan o'tamiz? E voh, buni endi kim imorat qiladi? Kim bu devorni qaytadan urishga kirishadi?! - deyishardi.

Shu tariqa birmuncha muddat yo‘l tamoman bekilib qolib, barcha kishilar yo‘ldan o‘ta olmay, ojiz qolishdi. El ichida ana shu xil iztirob va chorasizlik bo‘lib turgan paytda ular qoshiga umidvor tolib yetib keldi. Bu holatni ko‘rgach, ko‘ngliga xush yoqib, faryod chekkancha, hayajon bilan o‘zidan ketdi. El uning bu holatidan taajjubga tushib: "U bekordan-bekorga, asossiz ravishda chinqirib, o‘zidan ketdi",- dedilar. U hushiga kelgach, istak va maqsad dashtida ovora bo‘lgan bu bechoradan hol-ahvol so‘radilar. U shunday dedi:

— Men bu yerda to‘planib turgan kishilarni ko‘rdim, ammo ularning nima uchun yig‘ilganliklarini bilmadim. Lekin avvallari bu tomondan o‘tayotganimda devorga bir nazar tashlab o‘tar edim. U doim bu tomonga qiyshayib borar edi. Mana bugun u yiqilib ham tushibdi. Bu oddiy jonsiz tuproq bu xil sifat ko‘rsatib, oqibatda o‘zi istagan tomonga yiqilib tushibdi. Men esa o‘zimdan noumid bir holdaman, istagan maqsadimdah ham behad yiroqdaman. Devor menga bu ramzni oshkor etgach, men umidsizga ham umid yuzlandi: haq meni qayoqqa boshlasa, o‘sha yoqqa mutlaq yo‘llasin! Mening asosiy murodim faqru fanoga erishmoq edi, bu mushkilni menga Haqning o‘zi oson qildi. Bugun menga shunday baxt yor bo‘lib, beixtiyor shu holatga tushdim.

Yuqorida Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy asarlaridan olingan hikoyatlarda o‘zbek millatiga mansub shaxsning ma’naviy fazilatlarini ifodalovchi konseptlar tahlil qilindi. Ushbu ma’naviy fazilat ifodalovchi konseptlar o‘z navbatida illatlarga zid holda ko‘rsatib berildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аскольдов С.А. Концепт и слова//Русская словесности структуре текста. Антология. М: Academia.1997. С. 260-290
2. Mahmudov.N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab//O‘zbek tili va adabiyoti-T: 2012, 5-20-B.
3. Маслова В.А Лингвокультурология. академия, 2001 С-200-2010
4. Xudoyberganova. D. Matnning antroposentrik tadqiqi//—T:2013. -11-55-B
5. Tojiyeva G. O‘zbek tili ma’naviy-ma’rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti. Samarqand:2017